Биография

Urak Lafasov



Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Urak Pazilovich Lafasov 1963-yilning 20-iyunida Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumani, Adaq Jomboʻz qishlogʻida tugʻilgan. 1980-yili oʻrta maktabni bitirgan. 1981-yili Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika institutining Oʻzbek va qozoq filologiyasi fakultetiga oʻqishga kirgan. 1985-yili akademik Mazluma Asqarova rahbarligida "Oʻzbek tilida modal soʻzlar" nomli diplom ishini himoya qilib institutni tamomlagan. U oʻrta maktabda, texnikumda, Toshkent agrar universitetida, Toshkent moliya institutida va OʻzFA Tilshunoslik institutida ishlagan. Hozir Toshkent davlat sharqshunoslik institutida faoliyat koʻrsatmoqda. 1996-yili akademik Gʻanijon Abdurahmonov rahbarligida "Dialogik nutqda subyektiv modallikning ifodalanishi" nomli nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2003-yili dotsent unvonini olgan. Dotsent Lafasovning shu kungacha yozgan jami maqolalari soni 70 ta, shulardan 50 tasi "Abdulla Qodiriy romanlari lingvopoetikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasiga tegishlidir. Uning maqolalari Hindiston ("Relationship Between Turks And Japanese", International journal of scientific & technology research volume 9, issue 02, February 2020, ISSN 2277-8616), Angliya ("The King of Uzbek Prose", International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192 DOI), Qozogʻiston ("Али Кушчи и его научное наследие", Turkic Studies Journal, №1(2) 2020, Nur-Sultan, ISSN 2664-5157), Avstraliya ("The Migration of the Japanese from the Center of Turan to the East", Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 1, 2021 P-ISSN: 2204-1990; E-ISSN: 1323-6903) va Turkiya ("Cultural roots of okuzbeks and japanese", International Journal of Early Childhood Special Education. DOI: 10.9756/INT-JECSE/V14I2.462 ISSN:1308-5581 Vol 14, Issue 02, 2022) kabi mamlakatlarda nashr etilgan. Tilshunos olim bitta monografiya ("Abdulla Qodiriy romanlari lingvopoetikasi"), bitta darslik, yettita oʻquv qoʻllanma, uchta uslubiy qoʻllanma, bitta elektron qoʻllanma va ikkita lugʻat muallifidir.

Асарлари:

1999 Ўзбек тили (машқлар тўплами). O‘quv qo‘llanma (hammualliflikda). “ToshDSHI” kichik bosmaxonasi. – T.

2000 Ўзбек тилидан русийзабон гуруҳлар учун тест саволлари. O‘quv-uslubiy qo‘llanma (hammualliflikda). “ToshDSHI” kichik bosmaxonasi. – T.

2002 Ўзбек тили (машқлар тўплами). O‘quv qo‘llanma. “Ўзбекистон” нашриёти, – T.

2006 Ўзбек тили (I қисм). Darslik (hammualliflikda). “ToshDSHI” nashriyoti, – T.

2007 O‘zbek tili (1-qism). Darslik (hammualliflikda). “ToshDSHI” nashriyoti, – T.

2009 O‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma. ToshDSHI nashriyoti., T.

2016 O‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma. ToshDSHI nashriyoti., T.
Мурувватли устоз (академик Ғанижон Абдураҳмонов). Ilmiy-uslubiy risola, ToshDSHI nashriyoti., T.

2019 O‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma (grif olgan)., “ToshDSHI” nashriyoti
Нутқ маданияти ва нотиқлик. O‘quv qo‘llanma (grif olgan)., Toshkent

2020 O‘zbek tili. Elektron qo‘llanma., Toshkent
O‘zbek tili (ta’lim rus va qardosh tillarida olib boriladigan maktablarning 10-sinfi uchun). O‘quv qo‘llanma (hammualliflikda)., Toshkent, “G‘afur G‘ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi” nashriyoti.

2021 Абдулла Қодирий романлари лингвопоэтикаси. Monografiya., Toshkent, “TDSHU” nashriyoti.
Turkiy yozuvlar tarixi. O‘quv qo‘llanma., Toshkent, “TDSHU” nashriyoti.
Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma., Toshkent, “TDSHU” nashriyoti.
Ruscha-ispancha-o‘zbekcha-inglizcha LUG‘AT hozir qo‘llanayotgan siyosiy-iqtisodiy so‘zlar. O‘quv lug‘ati (hammualliflikda)., Toshkent, “TDSHU” nashriyoti.